



“G‘AFUR G‘ULOM ASARLARIDA INSONIYLIK G‘OYASI”

Ostanaboyeva Mavjuda Zafarjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huqushunoslik fakulteti

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz G‘afur G‘ulom asarlaridagi asosiy g‘oyalarni tahil qilish orqali o‘sha davr ijtimoiy holatini, insonlarning dunyoqarashi hamda fikrlashlarini o‘rganamiz. Shuningdek asarlardagi insoniylik xislatlari birma-bir yoritiladi.

Abstract: In this article, we study the social situation of the time, people’s worldview and thinking by studying the main ideas in Gafur Gulam’s works. Also the human qualities in the works are highlighted one by one.

Аннотация: В данной статье мы изучаем социальную ситуацию того времени, мировоззрение и мышление людей, изучая основные идеи в произведениях Гафура Гулама. Также человеческие качества в произведениях выделяются одно за другим.

XX asr O‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan adabiyotshunos, shoir, yozuvchi G‘afur G‘ulomning asatrlarini tahlil qilar ekanmiz ulardagi insoniylik, samimiylilik hamda soddadillik kabi insonning sof fitratiga mos bo`lgan xarakter hamda xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Ma‘lumki, G‘afur G‘ulom bir necha qissalr yozgan bo‘lsa ham, ularda ifoda tarsi, bayon qilish usuli mutlaqo o‘zgacha. Masalan: “Netay” asari 1931-yilda yozilgan bo‘lib, lirik-publisistik usulda uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. “Tirilgan murda” satiric yo‘sinda bo‘lib esdalik daftar shaklida yozilgan. “Yodgor” humoristik usulda yozilgan bo‘lib voqeani bosh qahramonning o‘zi hikoya qiladi. Shuningdek ularda G‘afur G‘ulom ijodining yuragi bo‘lmish insonparvarlik ruhi bland jaranglaydi. U mehnatkash, pok, o‘z aql zakovati, o‘zining peshona teri bilan kun kechiruvchi va hayotni, jamiyatni mukammal qilishga intilgan insonni faol himoya qiladi, uning taqdiri, buguni va ertasi uchun san’atkorlik qalbi bilan butun umr bo‘yi kurash olib boradi.

Ma’salan ”Yodgor” qissasida asar qahramoni Jo‘rani ota-onasiz qolgan bolaning ahvoli masalaga chuqurroq yondshishga undaydi. «Endi qanday bo‘lsa ham bolani qutqarib qolish kerak. Axir bu go‘dakda nima ayb?», deya Jo‘ra qat’iy qarorga keladi. Qutqarib qolishning birdan-bir yo‘li go‘dakni o‘z farzandim deb aytish edi. Shu sababdan ham Jora garchi o‘zining farzandi bo‘lmasa ham, va yoki bunday deyishi Jo‘raning nafaqat o‘zini balk iota-onasini isnotga qo‘ysa ham chaloqni “mening bolam”



deb aytishi hamda chaqaloqning taqdiriga befarq bo‘lmasligi asardagi haqiqiy insoniyik tushunchasini ochib bera olgan.

Fikrimizga yana bir isbot sifatda “Netay” qissasini ham misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu qissada ijtimoiy davr bosh qahramon taqdirining fojiali bo‘lishiga olib keladi. Qissada yozuvchi inson va jamiyat munosabatlari masalasini ancha keng yoritadi. U har qanday notinchlikni qattiq qoralab, “Otalar og‘illarini, onalar qizlarini tanimagan bir musibat kunlar”da hm chin insoniy fazilatlar saqlanib qolishi va otalik hssining qadron va lazzatli tuyg‘ulari zinhor millat tanlamasligiga diqqat qaratadi. “Netay”qissasida G‘afur G‘ulom jamiytning katta illatlaridan birini qalamga oladi. Yozuvchi “yomon xonning zulmi”ni, mingboshilar, sgahar qozilari gubernatorlarining zo‘ravonligini qahr-g‘azab bilan fosh etadi va “ko‘ngillari yig‘lagan, yuzlari kulgan, qalblari haqoratlardan qonagan” ayollarni himoya qiladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Faafur Fulom va Samarqand. – Samarqand, Universitet, 2003
2. Faafur Fulom – ўзбек адабиётининг байроқдори. – Samarqand, Universitet, 2003
3. Faafur Fulom. Mukammal asarlар тўплами. 5 т. – T : Fan, 1986
4. Mat’ebubova T. Faafur Fulom badiiyati. – T: Fan va texnologiya, 2006